

## Pedagog-tarbiyachi bilan 1-bosqich talaba qizlar suhbati

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti SXTE va B hamda QXM fakultet Xotin - qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi raislari va 3-Talabalar turar joyi pedagog-tarbiyachisi boshchiligidagi 1-kurs talaba qizlarimiz bilan birgalikda Talabalarning Talabalar turar joyiga joylashishi yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida qilinayotgan ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida tashrif buyurishdi.



Talaba qizlarga "Tozalik - ozodalik" va ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda bir qancha tavsiyalar berib o'zaro fikr almashishdi. Davra suhbatida ko'plab masalalar qatori qizlar tarbiyasiga oid fikrlar bildirilgani, bu borada bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik haqida ham fikrlar ilgari surilgani, ko'nglimizdagi maqsad-muddaolarga hamohang bo'ldi. Ayniqsa, qizlarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilish, iste'dod hamda qobiliyatini yuzaga chiqarish, ular orasida haqiqiy yetakchilarni tarbiyalash ishlarini yanada kuchaytirish kerakligi xususidagi mulohazalari o'rtaga tashlandi va Talabalar turar joyining ichki tartib qoidalariga qat'iy amal qilish kerakligi qizlarimizga tushuntirildi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**